

## SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQINI TA'MINLASH BORASIDA O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI

**Xudoynazarova Ozoda Mizrob qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

Telefon: +998(93) 506 22 06.

[22hamza06@mail.ru](mailto:22hamza06@mail.ru)

**Ravshanova Oyshabonu Salom qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

Telefon: +998(94) 251 66 55.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10712602>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur huquq bilan bog'liq xorijiy tajribalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Shaxsiy hayot, oilaviy sir, fuqarolik, siyosiy huquqlar, jazoni ijro etish tizimi, jismoniy tazyiq, majburiy jamoat ishlari, sud-tergov faoliyati, ma'muriy jazo, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari.

### UZBEKISTAN AND FOREIGN EXPERIENCE IN PROVIDING THE RIGHT TO PRIVACY

**Abstract.** This article analyzes the guarantees of a person's right to privacy in the legislation of the Republic of Uzbekistan. Foreign experiences related to this right have also been studied.

**Keywords:** Personal life, family secrets, citizenship, political rights, penal system, physical harassment, compulsory community service, judicial investigation activities, administrative punishment, compulsory community service, correctional work.

### UZBEKISTAN И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА НА КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ

**Аннотация.** В данной статье анализируются гарантии права человека на неприкосновенность частной жизни в законодательстве Республики Узбекистан. Изучался также зарубежный опыт, связанный с этим правом.

**Ключевые слова:** Личная жизнь, семейная тайна, гражданство, политические права, уголовно-исполнительная система, физическое притеснение, обязательные общественные работы, судебно-следственная деятельность, административное наказание, обязательные общественные работы, исправительные работы.

Shaxsiy hayot – jismoniy shaxsning o'zi tomonidan olib boriladigan, tashqi ta'sirdan xoli bo'lgan uning jismoniy va ruhiy hayotidir. Shuningdek, shaxsiy hayot bu oilaviy, maishiy muloqot muhiti, diniy munosabati, ishdan xoli mashg'uloti, shaxsiy qiziqishlari va shu doiradagi chegaralangan muhitlar bo'lib, shaxs bular haqida ma'lumotlar oshkor etilmasligini talab qilishi mumkin.

Misol uchun, shaxsiy hamda oilaviy sir sifatida farzandlikka olish sirini, er-xotinning o'zaro hayoti, shuningdek, boshqa shaxslar bilan yashirin munosabatlari hatto ishqiy

munosabatlari ham shaxsning o'z roziligisiz oshkor qilinmasligi bo'yicha qonunchilikda belgilab qo'yilgan normalar mavjud.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 3-moddasida har kim shaxsiy daxlsizlik huquq ega ekanligi, shuningdek, 12-moddasida hech kimning shaxsiy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish mumkin emasligi, shuningdek, har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Bundan tashqari, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt"ning 17-moddasida quyidagicha belgilangan: "Hech kim o'zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashishga, o'zining uy-joyi yoki yozishmalari siri daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilinishiga yoki uning or-nomusi va sha'niga noqonuniy tajovuz qilinishiga duchor etilishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya etilish huquqiga ega".

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro majburiyatlarini tashkillashtirishni takomillashtirish bo'yicha izchil va bosqichma-bosqich, xususan, qiynoqlarning oldini olish uchun zarur tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 31-avgustda BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasiga qo'shilishi davlatning inson huquqlari va erkinliklarining umume'tirof etilgan qadriyatlariga bo'lgan intilishlarini yana bir bor tasdiqladi. Qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlariga rioya qilish bo'yicha bir qator xalqaro standartlarni tan olish, davlat jazoni ijro etish tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalariga e'tiborini yanada kuchaytirdi.

Eng avvalo, insonning shaxsiy daxlsizlik huquqi bilan bog'liq kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida belgilangan bo'lib, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 30-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni sud-huquq sohasini isloh qilishda muhim hodisa bo'ldi.

Farmonga ko'ra O'zbekistonda jinoyat protsessi ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish, psixologik va jismoniy tazyiq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo'llash, jinoyat ishi doirasida noqonuniy yo'l bilan olingan har qanday audio va video yozuv hamda boshqa materiallardan dalil sifatida foydalanish qat'iy man qilingan.

Bundan tashqari, 2018-yil 4-aprelda qabul qilingan "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llaganlik uchun mas'uliyat kuchaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida shaxsiy daxlsizlik huquqiga putur yetkazganlik uchun quyidagicha jazo choralari belgilab qo'yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 46<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra, shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.<sup>1</sup>

Agar shaxs bunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin 1 yil ichida yana shunday qilmish sodir etsa, bu endi jinoyat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141<sup>1</sup>-moddasiga ko‘ra, shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni uning roziligisiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.<sup>2</sup>

Hozirgi kunda internet aloqa vositalaridan foydalanuvchilar soni tobora ortib bormoqda.

Buning natijasida, ma‘lumotlarni o‘g‘irlash, tijorat sirlarini oshkor qilish, shaxsiy hayotga o‘zgalarning aralashishi kabi holatlar ko‘p uchrab turibdi. Ayniqsa, mashhur shaxslarning shaxsiy ma‘lumotlariga nisbatan internet josusligi natijasida ular haqida matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda nomaqbul materiallar paydo bo‘lishi holatlari kuzatilmoqda.

Shuningdek, shaxsga oid ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlovga qaratilgan maxsus operatsion tizimlarda ishlovchi turli ilovalar hamda “niqoblangan” elektron dasturlar tarqatilmoqda.

Fuqarolarimiz esa fotosuratlar, o‘yinlar, qo‘llanmalar, elektron hujjatlar, elektron xatlar yoki boshqa fayllar yuklab olishi natijasida shaxsga oid deb qaralayotgan abonentlar kontakt ro‘yxati, kirish va chiqish qo‘ng‘iroqlar tarixi, akkauntlarga tegishli parollar, bank hisob raqamlari, bank kredit yoki debit kartalari ma‘lumotlari va boshqa ma‘lumotlar dastur muallifiga yashirin tarzda yuboriladi.

Buning natijasida, shaxsiy ma‘lumotlar hisoblanuvchi bank karta raqami, pin-kodini boshqalarga aytishda, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborilishida ehtiyotkorlik choralarini ko‘rmasak, shaxsiy ma‘lumotlarni oshkor etilishiga sababchi bo‘lgan hisoblanamiz.

Shu boisdan ham shaxsiy ma‘lumotlarini oshkor etilishining oldini olish maqsadida quyidagilarga rioya etilishi maqsadga muvofiqdir:

**Birinchi**dan, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsga oid ma‘lumotlarni jo‘natmaslik lozim.

**Ikkinchi**dan, “Serdaromad” ish yoki “xorijdagi meros” kabi taklif qiluvchilardan ehtiyot bo‘lish kerak.

**Uchinchi**dan, notanish bo‘lgan shaxslar bilan messengerlar, ijtimoiy tarmoqlar, turli platformalar orqali muloqot qilishda shaxsiy ma‘lumotlar taqdim etmaslik lozim.

**To‘rtinchi**dan, shubhali fayllar va ilovalarni ochib ko‘rmaslik, noma‘lum va shubhali manbalardan ma‘lumotlar yuklab olmaslik va shubhali havolalarni ochib ko‘rmaslik kerak.

<sup>1</sup> <http://www.lex.uz>

<sup>2</sup> <http://www.lex.uz>

**REFERENCES**

1. [www.legalcity.uz](http://www.legalcity.uz)
2. [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz).
3. [www.pravacheloveka.uz](http://www.pravacheloveka.uz).